



## XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING QARORI

2024-yil 26-avgust

VI-106-112-7-96-K/24

Kattaqo‘rg‘on tumani

### **Kattaqo‘rg‘on tuman 3-sektorini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, huquqbuzarliklar profilaktikasi ishlarni tashkil etish yuzasidan 2024 yil II yarim yilligiga mo‘ljallangan “Yo‘l xarita”si to‘g‘risida**

Tumanda qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish, tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i A.Ochilovning 2024 yil II yarim yilligiga mo‘ljallangan “Yo‘l xarita”sida belgilangan vazifalarni amalga oshirish va yuqorida bayon etilganlarga asosan hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq VI chaqiriq xalq deputatlari tuman Kengashining 106-sessiyasi

#### **QAROR QILADI:**

1. Tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i A.Ochilovning “Kattaqo‘rg‘on tuman 3-sektorini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi muamolarini bartaraf etish va ijtimoiy muhofazasini yaxshilash, tadbirkorlikni rivojlantirish va huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘yicha ishlarni tashkil etish yuzasidan 2024 yil 2 yarim yilligiga mo‘ljallangan “Yo‘l xarita”si ma‘lumot uchun qabul qilinsin hamda ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (N.Jo‘lmatov, L.Raxmonov, Q.Tog‘ayev, O.Shirinov, S.Djumayeva)ga 3-sektorni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash, kommunal va ijtimoiy sohani rivojlantirish bo‘yicha belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish choralari ko‘rish;

-tumandagi “Temir daftar”, “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari”ga kiritilgan ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar bandligini ta‘minlash, tibbiy ijtimoiy yordam berish vazifasi yuklatilsin.

3. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (A.Ochilov), tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (E.Raximov)ga:

-profilaktika inspektorlari tomonidan mahalla raislari va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda notinch oilalardagi ma‘naviy-axloqiy muhitni sog‘lomlashtirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish;

-muqaddam sudlangan shaxslarni profilaktik hisobga olish va ular bilan profilaktik tadbirlar o‘tkazish ishlarni sifatli tashkil etishni yo‘lga qo‘yish;

-jinoyat sodir etgan shaxslarni yashash joyidagi mahallada muhokama qilishni doimiy tashkil etib borilishini nazoratga olish;

-tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagida bo'lgan fuqarolarni biznes asoslariga o'qitish tizimini tashkil etish, ularni tadbirkorlikka yo'naltirish hamda biznes loyihalarni tayyorlashda ko'mak berish va uni amalga oshirish jarayonlarini doimiy monitoring qilib borish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman Ichki ishlar bo'limi (A.Ochilov), tuman Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (Sh.Sultonov), tuman Tibbiyot birlashmasi (V.Xudoyqulov), "Inson"IXM bolalar shu'bası (U.Ernazarov), va kasb-hunar maktablari (T.Xudayberdiyev, D.Ubaydullayev, A.Xidirov)ga voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilishda asosiy e'tiborni ularning ijtimoiy muhofazasi, sog'lig'i, ta'lim-tarbiyasi, bandligi va har tomonlama barkamol voyaga yetishini ta'minlashga oid qonunchilik ijrosini qat'iy ta'minlash vazifasi topshirilsin.

5. Tuman Ichki ishlar bo'limi (A.Ochilov) 3-sektor hududini kompleks ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish, aholining turmush tarzi va ijtimoiy muhofazasini yaxshilash yuzasidan 2024-yilning II yarim yillikka mo'ljallangan "Yo'l xarita"sida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlasin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasi (R.Djurayev), tuman hokimining birinchi o'rinbosari N.Jo'lnmatov zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi



TESHAYEV MUXIDDIN  
XOLIKULOVICH

Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashining  
2024-yil 26-avgustdagi  
VI-106-112-7-96-K/24 -son qaroriga  
1-ilova

**Tuman Ichki ishlar bo'limi boshlig'i A.Ochilovning "Kattaqo'rg'on tuman 3-sektorini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi muamolarini bartaraf etish va ijtimoiy muhofazasini yaxshilash, tadbirkorlikni rivojlantirish va huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha ishlarni tashkil etish yuzasidan 2024 yil 2 yarim yilligiga mo'ljallangan "YO'L XARITA"SI**

t/r	Chora-tadbirlar nomi	Bajarish muddati	Mas'ullar	
			I. Aholining kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini, shuningdek, yoshlarni qo'llab-quvvatlash masalalari bo'yicha	
11.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar mahkamasining qarorlari ijrosini ta'minlash yuzasidan "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"ga kiritilgan fuqarolarga ajratilayotgan mablag'larni maqsadli yo'naltirilishini monitoring qilib borish.	Doimiy	Tuman xokimi o'rinbosarlari (N.Jo'lmatov, S.Djumayeva), Yoshlar ishlari bulimii (L.Abduqaxxarov), 3-sektor shtabi a'zolari	Kattaqo'rg'on tuman IIB boshliq o'rinbosari JXX boshlig'i U.Murtazayev
2.2.	Sektor hududida joylashgan korxonalar tashkilot va ta'lim muassasalarini bino va inshootlarini kuz-qish mavsumiga tayyorlash va mavjud kamchiliklarini bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish.	Bosqich davomida	Tuman hokimi o'rinbosari (L.Raxmonov). tuman Maktabgacha va xalq ta'lim bo'limi (Sh.Sultnov), tuman Tibbiyot birlashmasi (V.Xudoyqulov). "Kattaqo'rg'on tumangaz" gaz ta'minoti bo'limi (O.Qo'ldo shev), tuman "Qo'radaryo"	Kattaqo'rg'on tuman IIB boshliq o'rinbosari JXX boshlig'i U.Murtazayev,

			elektr ta'minoti korxonasi (J.Alimov) 3-sektor shtabi	
3.3.	Sektordagi mahallalarda "Temir daftar", "Yoshlar daftari" va "Ayollar daftari"ga kiritilgan yordamga muhtoj fuqarolarning muammolarini mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda bartaraf etish, ularning kasbga yo'naltirish, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etilishida amaliy yordam ko'rsatish.	doimiy	Tuman xokimi o'rinbosarlari, (N.Jo'lmatov, S.Djumayeva) Yoshlar ishlari bo'limi (L,Abduqaxxarov), tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (E.Raximov) 3-sektor shtabi azolari	Kattaqo'rg'on tuman IIB boshliq o'rinbosari JXX boshlig'i U.Murtazayev
4.	Aholini bandligini taminlash va kambag'allikni qisqartirish, xorijdan qaytgan migrantlar, maktab va kasb xunar maktablari bitiruvchilarini bandligini taminlash maqsadida hududlar kesimida uchrashuvlar tashkil etish. "Ishga marhamat" monomarkazlari va mehnat yarmarkalari faoliyatini yo'lga qo'yish, kasb-hunarga va xorijiy tillarga o'qitish, tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish hamda norasmiy ishlayotganlarini faoliyatini o'zini-o'zi band qilish orqali qonuniylashtirish choralari ko'rish.	doimiy	Tuman xokimligi, ATB "Agrobank" Kattaqo'rg'on filiali (F.Ravshanov), AT Xalq banki Payshanba BXM filiali (U.Xoldorov) tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (E.Raximov)	Kattaqo'rg'on tuman IIB boshliq o'rinbosari JXX boshlig'i U.Murtazayev
5.	"Temir daftar", "Ayollar daftari" ga kiritilgan bandligi ta'minlangan va daromad manbayi ega bo'lgan fuqarolarni tuman kengashning sessiya qarorlari asosida ro'yxatdan chiqarish choralari ko'rib borish	Monitoring asosida	3-sektor raxbari, sektor shtab a'zolari, tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashi bo'limi (E.Raximov)	Kattaqo'rg'on tuman IIB boshliq o'rinbosari JXX boshlig'i U.Murtazayev

6.	Sektor hududida tasdiqlangan jadval asosida fuqarolar va yoshlar bilan sayyor qabullar o'tkazish, muammolarini o'rganish va mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda ijobiy hal etish.	Jadval asosida	3-sektor shtabi, tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashi bo'limi (E.Raximov) , Yoshlar ishlar bo'limi (L.Abdugaxxarov)	Kattaqo'rg'on tuman IIB boshlig'i A.N.Ochilov
7.	Sektor rahbari tomonidan o'tkazilgan aholi va yoshlar bilan sayyor qabullar orqali kelib tushgan murojaatlarni o'rganib ijobiy hal etish choralarini ko'rish.	jadval asosida	Tuman 3- sektor shtabi, tumandagi masul korxon va tashkilotlar raxbarlari	Kattaqo'rg'on tuman IIB boshliq o'rinbosari JXX boshlig'i U.Murtazayev
8.	Sektor hududida aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini yarartish, tibbiy yordamga muhtoj aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish, mavjud tibbiy muassasalar faoliyatidagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish.	2-yarim yillik davomida	3-sektor raxbari,tuman xokimligi, tuman Tibbiyot birlashmasi (V.Xudoyqulov)	Kattaqo'rg'on tuman IIB boshliq o'rinbosari JXX boshlig'i U.Murtazayev
11.	Aholi orasida tadbirkorlikni rivojlantirish borasida "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"ga kiritilgan oilalar, ayollar va yoshlarga imtiyozli kreditlarini ajratilishida ko'maklashish	har oy yakunida doimiy	Sektor rahbari (A.Ochilov), tuman hokimligi, tuman ATB "Agrobank" Kattaqo'rg'on filiali AT Xalq banki Payshanba BXM filiali (U.Xoldorov), tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashi bo'limi (E.Raximov) , hokim yordamchilari	Kattaqo'rg'on tuman IIB boshliq o'rinbosari JXX boshlig'i U.Murtazayev
12.	Tuman hokimligi bilan hamkorlikda sektor hududida mavjud tadbirkorlik subyektlari muamolarini o'rganish va bartaraf etish va ularga amaliy yordam ko'rsatish choralarini ko'rish	har chorakda doimiy	3-sektor rahbari, Tuman hokimligi, tuman ATB "Agrobank",Kattaqo'rg'on filiali Xalq banki Payshanba	Kattaqo'rg'on tuman IIB boshliq o'rinbosari JXX

			filiali, BXM tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashi bo'limi (E.Raximov), hokim yordamchilari	boshlig'i U.Murtazayev
<b>II. Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sohalarini rivojlantirish masalalari bo'yicha</b>				
13.	Sektor hududida qishloq xo'jalik maxsulotlarini yetishtirish mavjud muomolarni o'rganish va bartaraf etish chora tadbirlarini ko'rish Oziq - ovqat mahsulotlari narx-navo barqarorligini ta'minlash yerlarni sug'orishda ilg'or texnologiyalarni joriy etish, borasida mavjud dehqon xo'jaliklari va fermer, qishloq xo'jaligi klasterlari faoliyatiga amaliy yordam ko'rsatish.	doimiy	3-sektor raxbari (A.Ochilov), tuman Qishloq xo'jalik bo'limi (A.Rizonov), tuman IIB JTSB	Kattaqo'rg'on tuman IIB boshliq o'rinbosari JXX boshlig'i U.Murtazayev
14.	Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (paxta, g'alla, poliz ekinlari va h.k.)ni o'z vaqtida yig'ishtirib olinishini va qish-bahor mavsumiga zaxirasini tashkil etish	doimiy mavsum davomida	3-sektor raxbari, tuman Qishloq xo'jalik bo'limi (A.Rizonov), tuman IIB JTSB	Kattaqo'rg'on tuman IIB boshliq o'rinbosari JXX boshlig'i U.Murtazayev
15.	3-sektorlarda hududidagi yer maydonlaridan oqilona va samarali foydalanishini tashkil etish, yangi yer maydonlari o'zlashtirilishini va ehtiyojmand oilalarga ajratilgan yer maydonlaridan unumli foydalanishini tashkil etib borish	doimiy mavsum davomida	tuman hokimligi, 3-sektor rahbari, tuman Qishloq xo'jaligi bo'limi (A.Rizonov)	Kattaqo'rg'on tuman IIB boshliq o'rinbosari JXX boshlig'i U.Murtazayev

**III. Huquqbuzarliklar va jinoyatlarni barvaqt oldini olish, profilaktik tadbirlar samaradorligini oshirish bo'yicha**

16.	<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.11.2021 yildagi 27-sonli "Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va boshqa amaldagi qonun, qarorlar talablari asosida mahallabay jinoyatchilikni tartibini saqlashga qaratilgan profilaktik tadbirlarni belgilash, samaradorligini oshirish, jinoyat sodir etilgan va qizil toifaga kiritilgan mahallalarda patrullik yo'nalishlarini, kriminogen vaziyati barqaror hududlarda manzilli profilaktik tadbirlarni kuchaytirish;</p> <p>-jamoat xavfsizligini ta'minlash, jamoat tartibini saqlash, ommaviy tadbirlarni o'tkazishda kuch-vositalarni maqsadli yo'naltirish,</p> <p>-aholi, profilaktik va probatsiya hisobida turgan, xususan voyaga yetmaganlar, yoshlar, xotin-qizlar bilan manzilli profilaktik ishlarni tashkil etish,</p> <p>Mahallalarni "Qizil", "Sariq" hamda "Yashil" hudud toifalariga bo'lgan holda kuch-vositalarni mahallalarga jalb qilish.</p>	<p>har oylik tahlillar asosida</p> <p>alohida taqsimot asosida</p>	<p>Tuman IIB huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limi, probatsiya xizmati, jinoyat qidiruv bo'limi, jamoat tartibini saqlash bo'limi, tergov bo'limi, tumandagi mutasadi korxonalar va tashkilotlar</p>	<p>Kattaqo'rg'on tuman IIB boshliq o'rinbosari JXX boshlig'i U.Murtazayev</p>
17.	<p>Sektor hududidagi notinch oilalar, oilaviy ajrashish uchun ariza berganlar, profilaktik hisobga olingan shaxslar, xotin-qizlar, yoshlar, DEO a'zolarining muammolarini o'rganib chiqish va hal qilish, ularning bandligini ta'minlash,</p>	<p>har oylik tahlillar asosida</p>	<p>Tuman IIB huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limi, probatsiya xizmati, jinoyat qidiruv bo'limi, jamoat tartibini saqlash bo'limi, tergov bo'limi, tumandagi mutasadi korxonalar va tashkilotlar</p>	<p>Kattaqo'rg'on tuman IIB boshliq o'rinbosari JXX boshlig'i U.Murtazayev,</p>

18.	<p>Tunggi reydlar hamda xatlov o'tkazish orqali hududlardagi bo'sh turgan binolar inshootlar, mulk egalari uzoq muddatga boshqa hududda bo'lib qarovsiz qoldirilgan uy-joylarni aniqlash va mas'ul shaxslarga biriktirish;</p> <p>Ko'chalar, umumiy ovqatlanish, savdo va maishiy xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan bino inshootlarni kuzatuv kameralar va tungi yoritish chiroqlari bilan ta'minlash, Milliy gvardiya qo'riqlash xizmatining "pulti"ga ulash uchun targ'ibot tadbirlarini o'tkazib borish.</p>	doimiy	<p>3-sektor rahbari, tuman IIB huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limi, jinoyat qidiruv bo'limi, jamoat tartibini saqlash bo'limi tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashi bo'limi (E.Raximov), hokim yordamchilari,</p>	<p>Kattaqo'rg'on tuman IIB boshliq o'rinbosari JXX boshlig'i U.Murtazayev</p>
19.	<p>Tuman hududidan o'tgan xalqaro, davlat va mahalliy ahamiyatdagi yo'llarni texnik holatini o'rganib borish, aniqlangan kamchiliklarni mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda bartaraf etish (yo'l belgilari, yo'l qatnov qismini ikkiga ajratuvchi 1-guruh to'siqlarini, svetofor obyektlarini o'rnatish, ko'cha va yo'llarni tungi yoritish chiroqlari, videokuzatuv moslamalari bilan jihozlash),</p> <p>-qo'pol qoidabuzarliklar va o'lim bilan bog'liq yo'l-transport hodisalari oshgan hududlarda "Harakat xavfsizligi profilaktik va reyd tadbiri"ni kuchaytirish, banner, pannolar o'rnatish</p>	<p>doimiy</p> <p>har chorak yakuni bo'yicha</p>	<p>tuman sektor rahbarlari, tuman IIB Yo'l harakati xavfsizligi bo'limi (S.Amonov), tuman Yo'llardan foydalanish korxonasi DM (M.Temirov) boshqa mutasaddi tashkilotlar</p>	<p>Kattaqo'rg'on tuman IIB boshliq o'rinbosari JXX boshlig'i U.Murtazayev</p>